



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | |
|--------------------|--|
| 1. B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 7. D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 8. G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 11. Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 12. Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 13. N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 14. M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIIY QO'MITASI

- | | |
|--------------------|---|
| 1. M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 4. F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 6. M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 7. Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 8. M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 11. M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor

F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

“WILL” FE’LI ORQALI IFODALANGAN MUMKINLIK MODAL MA’NOSINING DISTRIBUTIV VA KONTSEKSTUAL TAHLILI

Rahimova Mehribon Allayarovna

Urganch Davlat universiteti,

2-kurs tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilidagi *will* modallik fe’lining “mumkinlik” ma’nosi qanday amalga oshishi distributiv va kontekstual tahlil asosida o’rganiladi. Tadqiqotga ko’ra, *will* fe’li asosan ikki asosiy modal ma’noni ifodalaydi: ehtimollik (probability) va ruxsat/iroda (permission/volition). Maqolada *will* va *would* modallikda qo’llanishi ko’proq stilistik va kontekstga bog’liq ekani ta’kidlanadi. *Will* va *would* orqali ifodalangan mumkinliklar ko’pincha emotsional ohangda bo’lib, gapiruvchining vaziyatga bo’lgan munosabatini ham bildiradi.

Kalit so’zlar: modallik, *will* fe’li, distributive tahlil, kontekst tahlil, mumkinlik.

Paradigmatik tahlil ko’rsatdiki, *will* “mumkinlik” ma’nosining umumlashtirilgan ikkita ko’rinishini ifodalashga qodir: probability va permission (volition). Ushbu paragraf *will* va *would* ning ajratib ko’rsatilgan ma’nolari amalga oshishining sintaktik shartlarini tahlil qilishga bag’ishlangan. Ta’kidlash lozimki, *will-would* vaqt bo’yicha: hozirgi-o’tgan muntazam qarshi qo’yishni kuzatish mumkin bo’lgan *can-could* va *may-might* kabi o’zaro bog’lanishdagi juftlik hisoblanmaydilar. *Will* va *would* o’rtasida (shuningdek, *shall-should* o’rtasida ham) hozirgi ingliz tilida kategoriyal zamon aloqasi buzilgan. *Will* ning (*shall* ning ham) asosiy vazifasi uning nutq jarayoni nuqtai nazaridan kelasi zamon (Future I) ma’nosida qo’llanilib kelib chiqishi bo’yicha bu fe’lning o’tgan zamon shakli hisoblangan *would (should)* ning asosiy vazifasi – o’tgan zamon nuqtai nazaridan kelasi zamonni (Future II) ifodalashdan iborat. Fe’lning kategoriyal shakli ko’rsatkichlari (futurity markerlari) sifatida *will* va *would* modal fe’llar tizimidan tushib qoladi. Biroq, paradigmatic va sintagmatik tadqiqotlarning natijalari ko’rsatadiki, *will* va *would* modal ma’nolarda (ayniqsa dialogik nutqda) ham qo’llaniladilar.[Palmer,45] *Will* va *would* larning modal ma’nolarda qo’llanilishiga ularning distributiv modelining bosimi ta’sir ko’rsatadi. Ushbu fe’llar ko’rib chiqilgan *can* va *may* fe’llari kabi sintaktik tuzilish modeliga egadirlar. Bu modal fe’llar ko’rinishining bir xilligi ularning semantik o’xshashligini belgilab beradi. Biroq, ushbu fe’llarning har birini “mumkinlik”ning o’ziga xos differensial semantik belgisi ajratib turadi. Ularning “mumkinlik” ma’nolari bir-birini to’ldiradi. Agar *can* — adekvat, nazariy xarakterdagi “mumkinlik”ni (adequate, theoretical potentiality), *may* esa – tasodifiy, haqiqiy “mumkinlik”ni (contingent, factual potentiality) ifodalasa, u holda *will* va *would* – adekvat, qat’iy “mumkinlik”ni (adequate, sure potentiality yoki adequate assurance) ifodalaydi.

Will va *would* larda “mumkinlik”ning u yoki bu ma’nosining amalga oshishini aniqlashda makrokontext *can* va *may* dagi ma’nolarni aniqlashga qaraganda yanada kattaroq rol o’ynaydi. Agar *can* va *may* har qanday kontekst tarkibida “mumkinlik” modalligini ifodalasa, u holda *will* va *would* o’zining kelasi zamonning hamda shart maylining yordamchi fe’li sifatidagi asosiy grammatik vazifasi bilan modal ma’nolarni faqat muayyan kontekst tarkibidagina bajaradi (ayniqsa *would*). Probability va permission (volition) so’zlari *will* ning asosiy modal ma’nolari hisoblanadi. Bu ma’nolar *will* ning barcha qo’llanilishlarining 70 foiziga to’g’ri keladi. *Will* (va *would*) da probability ma’nosi, yuqorida qayd etilganidek, “probably” kontekst ko’rsatkichi bilan, shuningdek probability mikromaydoni konstituentlari bo’lgan so’zlar orqali aniqlashtiriladi.

Masalan: There was no doubt what Ellen would say to a daughter who told lies and engaged in sharp practices [Mitchell, 551].

Palmerning fikriga ko'ra, *will* ning probability ma'nosida qo'llanilishini tavsiflovchi muhim formal belgilardan biri – bu uning o'tgan zamon korrelyati sifatida *will* + *Perfect Infinitive* birikmasining ishlatilishidir. Qiyoslang, masalan:

They will be having a meeting today.

They will have been having the meeting yesterday.

Xulosa o'rnida, *will* va *would* larning "mumkinlik" modal ma'nolaridagi qo'llanilishiga odatda emotsional tus beriladi. Bu fe'llar "mumkinlik"ning turli ma'nolarini – probability, permission, characteristic, physical ability, sureness – ifodalaydi va voqea-hodisalar bo'lishi mumkin yoki ehtimol degan mazmunda ifodalanadi. Ularga odatda so'zlovchining ish-harakatning amalga oshishiga bo'lgan dadilligi yoki ishonchi kabi emotsional noziklik qo'shiladi. *Will* va *would* har doim mulohazaga muayyan emotsionallik bag'ishlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Palmer, F. R. (2003). *Modality and the English Modals*. Longman.
2. Lyons, J. (1977). *Semantics: Volume 1*. Cambridge University Press.
3. Coates, J. (2014). *The Semantics of the Modal Auxiliary Verbs in English*. Oxford University Press.
4. Webster's New World College Dictionary. (2014). Houghton Mifflin Harcourt.
5. Roget, P. M. (2002). *Roget's Thesaurus of English Words and Phrases* (5th ed.). Penguin Classics.